
YANGI MEHNAT KODEKSI

Yangi Mehnat kodeksining 302-303-moddalariga ko'ra: Xizmat tekshiruvi – xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararining xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirishdir. □Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi: ???omnaviy axborot vositalarining xabarlari; ???xodimning bevosita rahbarining bildirgisi; ???jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari; ???xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos beradigan boshqa ma'lumotlar. ??? Ish beruvchi xizmat tekshiruvi o'tkazish haqida qaror qabul qilishga haqli. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qaror tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi. O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkaziladigan xodim ish beruvchining xizmat tekshiruvi o'tkazish haqidagi buyrug'i hamda xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha komissiya tarkibi bilan imzo qo'ydirib tanishtirilishi kerak. Ulug'bek SULAYMONOV, Qo'shtepa tuman Adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi.
2022-11-24 15:54:51